

Mustaqillik Davri She`Riyatiga Nazar

Ubaydullayeva Rayhon Abdujalil qizi¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizning istiqlol yillarida she`riyatning rivojlanishi, o`ziga xos yo`nalishlarning vujudga kelishi, shoirlarning ijodidan namunalar muhokama etiladi.

Kalit so`zlar: she`r, mustaqillik, shoir, nasr, janr, metod.

KIRISH

O`zbek she`riyatiga nazar tashlar ekanmiz, bu gulshanda ildizi ming yillardan buyon qurimaydigan daraxtlarga ham, endi gullab kelayotgan yoshnihollarga ham ko`zimiz tushishi tabiiy hol. She`r - inson qalbidagi eng kichik tug`yonlarni ham junbushga keltiruvchi lirik janr. Shoir shunchaki shoir bo`lib qolmaydi. Hayotda ko`rgan-kechirganlari, qiyinchiliklari, mashaqqatlari shoirni she`r yozishga undaydi. She`rda shoir o`zining qalb kechinmalarini qog`ozga to`ksa, uni o`qigan inson ham xuddi shu kechinmalarni boshdan o`tkazadi. Bir she`rni qo`limizga olib o`qir ekanmiz, ba`zan yig`laymiz, ba`zan xafa bo`lamiz, ba`zan esa aksincha kulamiz, kayfiyatimiz ko`tariladi. Bu she`rning qay yo`sinda yozilganiga bog`liq. She`rning ma`nosi qanchalik chuqur bo`lsa uni o`qiyotgan insonni ham chuqur o`yga tolshga, xulosa chiqarishga undaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shu o`rinda Abdulla Oripovning ushbu misralariga to`xtalsak:

Qara-ya o`tibdi, qirq yil muttasil

Yashabman yulduzlar ostida karaxt

Oh, shoir umriga havas qilmagil

U quyun ichida ungan bir daraxt.

Shoir qo`liga qalam oldimi orqaga yo`l yo`q. Abdulla Oripov ham qo`liga qalam tutgan qirq yil qanday o`tib ketganini sezmagani ham bo`lsa kerak. Hayotini, umrini mana shu she`rlariga bag`ishlagan va biz yoshlar uchun o`zidan beqiyos meros qoldirgan fidokor shoirlardan biridir. Ayniqsa mustaqillik yillaridan keyingi davr she`riyatining boyligini hech qanday so`zlar ifodalay olmaymiz. Ushbu yillarda ijod qilgan shoirlar asarlarining ko`lami ikki karra yuksak cho`qqilarni zabt etdi. Usmon Nosir qamoqxona devorlariga ko`mir bilan o`zbekning buyuk millat ekani haqida she`r yozgan. Har kuni yozgan. Bo`sh devor topdimi yozavergan. Balki shu kunlar kelishini oldindan bashorat qilgandir. O`zbek she`riyati yo`lida jonini ham fido qilgan mana shunday shoirlarning avlodi ekanimizdan faxrlanmaslikning iloji yo`q. Ozodligimiz bizga milliy-urf odatlarimiz, an`analarimiz va eng avvalo erkimizni qaytardi. Mustaqillik yillarida diniy mavzularda yozilgan asarlarni ham ko`ramiz. Bunga yaqqol misol qilib, Abdulla Oripovning "Haj daftari" va "Jannatga yo`l" to`plami va dramatik dostonini olishimiz mumkin. Adibning "Haj daftari" asari shoirning haj safariga yo`l olishi munosabati bilan yozilgan asar bo`lib, ushbu asarda diniy tasavvufiy ruhi ufurib turadi. Masalan "Haj daftari" asaridan to`rt misrani tahlilga tortsak:

¹ Guliston davlat pedagogika instituti o`qituvchisi



Duch kelgan sanamga sig'indik gohi,

Bizga keng ochildi Shayton dargohi.

Axir, nima edi elning gunohi,

Keldim, madad bergil, yo kabatulloh

Shoir shu o'rinda Allahning buyukligiga urg'u berib o'tadi. Bud-sanamlarga sig'inishni ochiq-oydin qoralaydi. Ayniqsa jahon urushi paytlarida davlatlar bir- birini bosib olgach, dindan qaytganlar ham talaygina bo'lgan bo'lsa ajab emas. Bu holatda elning gunohi nima edi deb shoir o'zini savolga tutadi. Shaytonning hiylalariga aldanib qolmaslikka, har qanday vaziyatda ham musulmon o'z dinida sobit qolishligini so'rab kabatullohga yuzlanadi.

“Jannatga yo'l” dostoni esa fantastik va afsonaviy-mifologik usulda yozilgan doston. Asardagi voqealar narigi dunyoda sodir bo'ladi. Aslida esa mifologiya yordamida realistik hodisalar yoritilgan, ya'ni adib afsonaviy naql vositalari orqali real dunyo muammolarini talqin qiladi. Mana shunday merosiy asarlarning soni va salmog'i ko'payishi uchun biz yosh avlod vakillari ham qo'limizdan kelgancha o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. “Ellik yilda el o'zgaradi” deganlaridek har qanday soha davrlar mobaynida ajdoddan avlodga ko'chib boradi. 50 yil avvalgi bobokalonlarimizning bugungi kun yoshlari bilan dunyoqarashi, fikr doirasini solishtirganimizda ikkising o'rtasidagi tafovut yaqqol seziladi, avvalgilarning hayotga qarashi, fikr yuritishi, narsalarni ta'riflashi, obraz yaratishi bugungi kun o'lchovi bilan qaralganda nisbatan soddarroq, oddiyroq bo'lgani ko'rinadi.

XXI asr yosh ijodkorlari ham nasrda ham nazmda bu jihatdan bir qadar yuqori ekanligi kishini quvontiradigan holat albatta. Lekin ellik yil avvalgi ijodkorlarimizning so'zi salmoqdor. Tengdoshlarimizning “Birinchi kitobim” rukni ostida nashr etilgan ayrim to'plamlaridagi she'rlari yosh qalamkashlarimizyaqin kelajakda yuksak parvozlarni ko'zlayotganidan darak beradi. Yosh shoira Madina Norchayevaning “Dil ifori” nomli she'riy to'plami nashr etilgan.

Tun-siyohdon.

Oy-patqalam.

Nogoh titrar,

Chekolmayin sardaftarga imzosini.

Zamin yo'ldir, ketar bir juft yurakliklar

Muhabbatga almashgudek dunyosini.

Ushbu misralarda shoira tashbehlardan mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tun qora bo'lgani uchun uni siyohdonga, oyni esa patqalamga qiyoslaydi. Havaskor shoira so'z jilosi va qadrini yaxshi tushunadi, hayotiy tuyg'ularni nafis ifodalarga ko'chira oladi. Oxirgi misralarida azaliy ishq va hijron motivlari ifori anqib turadi.

Mana shunday yosh ijodkorlardan yana biri Jo'rabek Jahonning “Tuyg'ular shaharchasi” nomli she'rlar to'plami chop etilgan. Kitobda o'rin olgan she'rlarda tuyg'u va kechinma o'ziga xos tarzda o'rin olgan.

Do'st qolmadi menga o'zga qalam birla qog'ozimdan

O'gitlar o'rganib o'sdim hayot nomli marosimdan.

Ikki qator misra orqali shoir o'zining ruhiy kechinmalarini teran tasvirlaydi. Qalam va qog'oz bilan do'st tutinadi. Shoir hayotning har bir uzvidan ma'no va mazmun axtaradi. Hayotining har bir qismini o'ziga dars deb biladi. Uning aksar ta'riflari yuksak pafosga yo'g'rilgan.



Seni anglash uchun kamida

Yurak kerak, osmonday yurak.

Deb yozadi shoir haqiqatdan hayot falsafasini timsolli anglash uchun teran falsafiy nigoh, obrazli ifodalash uchun esa sohir yurak lozim.

Kumush Abdusalomova ham talaygina she'rlari bilan yoshlar diqqat markazidagi sevimli shoirlarimizdan biridir. Uning 2015-yilda "Birinci kitobim" loyihasi doirasida "Kuylamasam bo'lmaydi" nomli she'riy to'plami chopetilgan. Shoiraning bu kitobdan joy olgan she'rlari o'zining yorqin poetik ifodasi, bo'yoqdorligi bilan tengdoshlarinikidan alohida ajralib turadi.

Bizda arislonlarni bo'lmaydi ovlab,

"Bizda arislon ovi qilingan ta'qiq!"

Ohularga tegmang, bechora

Qarang, ko'zlarida ko'rinar hadik.

Shoiraning "Kuylamasam bo'lmaydi" to'plamidan o'rin olgan "Taqiq" she'ri, hozirgi kundagi dolzarb muammoga aylanib borayotgan, jonivorlarga ozor bermaslik, yo'qolib ketayotgan, nasli kam qolgan, hayvonlarni asrash to'g'risda fikr yuritiladi. Umuman olib qaraganimizda arslon hayvonlar shohi, jasorat kuch qudrat ramzi hisoblanadi. Ohu esa ezgulik, yorug'lik ramzi. She'rdagi to'rt qator misra orqali, shoira hayotdagi o'zining harakterini, hayvonlarga mehribonligini ifoda etadi.

Zulmat ko'ksin ildizdek yorib,

Bormakdaman

Qayga? qay tomon?

O, Fano va Baqo Sarvari,

Qaytmoq bo'lsam qanday qaytaman.

Jontemir Toshtemirovning ham o'ziga xos bir olami bor. Yuqoridagi "Tush" she'ridan olingan misralarni tahlilga tortar ekanmiz, bu olamning mukammalligi bir qadar yuqori bosqichda ekanligidan faqatgina quvonamiz. Yerga ekin eksak ekinimizning ildizi yerni yorib chiqadi, keyinchalik u ko'karadi va hosil beradi. Xuddi shunday shoir ham she'rida tush ko'radi va o'zini ildizga yerni esa zulmatga qiyoslab, ko'chma ma'nolaridan foydalanadi. Baqo va Fano sarvari ya'ni, bu dunyo va u dunyoning yolg'iz egasi Allahdan madad so'raydi.

Shahrisabz irmoqlarida,

Olma yuzin chayib olgan qiz.

Oqdaryoning qirg'oqlarida,

She'rim o'qib o'yga tolgan qiz.

Shoir o'zining qalbiga, yuragiga, boringki tabiatiga sodiqlik bilan e'tiqod qo'yib yashashni istaydi. Garchand yuragining bir parchasi tug'ilgan maskani ona shahar Shahrisabzda qolib ketgan bo'lsa ajab emas.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganimizda mustaqillik davri o'zbek she'riyati milliy adabiyotimiz rivojlanish bosqichida ekanidan darak beradi. She'riyatimizningkelajagiga umid bilan qarashga yetarli asoslarimiz bor.



ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ulug'bek H. Yangi o'zbek she'riyati - Toshkent; Adib, 2012;
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008;
3. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq NMK, 2004;
4. Norchayeva M. Dil ifori. She'rlar. – T.: Muharrir, 2013.
5. Jo'rabek Jahon. Tuyg'ular shaharchasi. She'rlar. – T.: ADIB, 2014.
6. Kumush Salomova. Kuylamasam bo'lmaydi.- T.: ADIB, 2015

